

O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA QO‘LLANILGAN DIALEKTLAR

Olimjonova Fazilatxon Orifjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zga tilli guruhlarda rus tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna

Gumanitar fanlar fakulteti
“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolani yoritish jarayonida asarlardagi dialektlar va uning bugungi kundagi mohiyati tahlil qilindi. Shu bilan birga asarlardagi dialektlarning shakllanish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Dialekt, maqola, portret, til, adib, kitob, xalq, asar, adabiy me‘ros.*

ANNOTATION

In the process of covering this article, the dialects in the works and their meaning today were analyzed. At the same time, the issues of the formation of dialects in the works were highlighted.

Keywords: *Dialect, article, portrait, language, writer, book, people, work, literary heritage.*

АБСТРАКТНЫЙ

В ходе освещения данной статьи были проанализированы диалекты в произведениях и их значение сегодня. Одновременно были освещены вопросы формирования диалектов в произведениях.

Ключевые слова: Диалкт, статья, портрет, язык, писатель, книга, люди, работа, литературный наследие.

KIRISH:

Elimiz suygan adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov o‘zining betakror asarlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan. O‘tkir Hoshimov-taniqli o‘zbek yozuvchisi va jamoat arbobi hisoblanadi. Badiiy ijodda hikoya, qissa, va roman janrining takomiliga samarali hissa qo‘sha olgan O‘tkir Hoshimov, badiiy publitsistikaning maqola, adabiy - qaydlar, adabiy portret, suhbat janrida barakali ijod qila oldi. Shuningdek adib, ijodini yana nasr yo‘nalishida hamda hikoyanavislik janri bo‘yicha qalam tebratgan. Bundan ko‘rinadiki, adibning asarlaridagi qo‘llanilgan badiiy dialektlar, publitsistikada ham yorqin ko‘zga tashlandi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning qirqdan ortiq asarlari ya’ni "Cho‘l havosi", "To‘ylar muborak", "Tushda kechgan umrlar", "Sizdan u gina bizdan bu gina", "Dunyoning ishlari", "Vijdon dorisi", "Ikki eshik orasi" kabi asarlari ko‘plab kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Yozuvchining asarlari joy olgan kitoblarning umumiy soni 2 milliondan oshgan. Adibning ko‘plab asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. Masalan, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobi ingliz tiliga, "Dunyoning ishlari" asari esa 37 ta tillarga tarjima qilingan. Bu natijalar har bir ijodkor uchun eng katta yutuqdir.

MUHOKAMA MATNI

Dialekt shevaga nisbatan keng ma’noda qo‘llaniladi. Adabiy tildan o‘zining ba’zi bir xususiyatlari chunonchi, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq bo‘lagi dialekt deb yuritiladi. U tilning eng kichik bo‘lagi sanalgan shevalarning qanchasini o‘z ichiga oladi, ya’ni u shevalar yig‘indisidan tashkil topadi. Masalan, qirq, saroy, jo‘sh, nayman, qo‘ng‘irot, qipchoq qoraqalpoq, baxmal, ming, burgut kabi shevalar birlashib, o‘zbek tilining

qipchoq dialektini tashkil qiladi. Lekin ba'zan dialekt atamasining tor ma'noda, ko'pincha sheva ma'nosida qo'llanilishi ham uchraydi: Buxoro dialekti kabi.

Makonni o'rganish nuqtai nazardan dialektologiya ikki xil bo'ladi:

1) tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya; 2) tarixiy dialektologiya. Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy sheva va lahjalarga xos fonetik va leksik, morfologik xususiyatlarni qayd etadi, yozib oladi va ularni kartaga tushiradi. Tarixiy dialektologiya tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davrlarda o'zgarish, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning ishtiroki kabilarni o'rganadi. Keyingi yillarda barcha o'zbek shevalarini real va lingvogeografik usullar bilan o'rganish ham tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi. "O'zbek dialektologiyasi" o'zbek shevalarini o'rganadigan fandır.

"Dialektologiya" so'zi grek tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalishi chegaralarini o'rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda birinchi yurtboshimiz I.A. Karimovning: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir"- degan so'zlarini eslash o'rindir. Dialektologiyada ikki xildagi dialekt to'g'risida ham fikr yuritiladi, ya'ni mahalliy dialektlar va Ijtimoiy dialektlardir. Mahalliy dialekt umumhalq (milliy) tilining muayyan territoriyaga oid ko'rinishi, o'ziga xos namoyon bo'lishidir. O'zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda muayyan guruhdagi shaxslarning umumhalq tilidagi so'zlarga o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan soha, kasb-hunar leksikasi,

terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining oʻzlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ular biror sheva yoki dialekt xususiyatiga ega emas. Ijtimoiy dialektda shevaga oid soʻzlar ham baʼzan qatnashishi mumkin.

Oʻzbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni oʻrganmaydi, ijtimoiy qatlamlar tili sotsiolingvistikaning obʼyektidir. Oʻtkir Hoshimovning asarlarida koʻplab dialektlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, "Dunyoning ishlari" qissasida: choʻpchak - onam aka - ukalar haqida gʻalati bir choʻpchak aytib bergan edi;-- emishki, bir zamonlar ikki aka- uka yashagan ekan.[9- bet] "Haqqush" hikoyasida; obkeb beray- kuldonningiz boʻlmasa, ayting,uydan obkeb beray! [11- bet], obkash - yana obkashmi?[12-13- betlar] tancha - uy ichini tanchadan chiqqan koʻmir hidi,lampa moyi isi tutgan.[13- bet] chakka, ada - ammo sen adangni,opangni yaxshi koʻrishing kerak.[14- bet] oyi - oyi choʻpchak etib bering.[11-15- bet] oʻshanaqa - oʻshanaqa qilsam boshqa daryolarni ham yaxshi koʻrib qolaman - a? [15-bet] kabi soʻzlarni "Ikki afsona" hikoyasida; quv-quv yoʻtalib-quv-quv yoʻtalaman.[16- bet], sarpoyan-sarpoyan kelaverdingizmi?[18- bet], juba, jurabi - Kavkazda juba,jurabi deyishadi. [16- bet] kabi soʻzlarni "Tushda kechgan umrlar" romanida: mubham,tagʻin - tagʻin nima deydi deng?[4-5- bet], paqir-vannaxonada turgan paqirni taraqlatib yubormaslik uchun halqasidan ohista koʻtardi.[5- bet] nima qipti-nima qipti: hayol suribe-eb supuraveradi.[6- bet] nevara-Qurbonboy xola boʻynini achom qilib yotgan nevarasini uygʻotib yubormaslik uchun sekin qaddini rosladi.[4-6- bet], borakan, yupun, norgʻul kabi soʻzlar;

"Ikki eshik orasi" romanida: kep qoldi, hali veri, anunda, tagʻin va shu kabi koʻplab dialektlarga duch kelamiz. Ushbu dialektlarning asarda qoʻllanishi asardagi oʻziga xos maʼnolarni ochib bergan. Jumladan, choʻpchak - xalq ogʻzaki ijodida: ertak, ushuk; obkash-ikki uchidagi ilmogʻiga chelak osib, yelkada suv va boshqa narsalar tashish uchun moslangan yogʻoch asbob; tancha - sandal, ada - dada, oyi - ona, tagʻin - buning ustiga,bundan tashqari,ustiga- ustak; paqir - chelak, mubham - chigal, norgʻul - baquvvat,gavdali; yubun - yupqa kabi dialektlar shu maʼnolarni anglatadi.

O‘tkir Hoshimovning dialektlarga to‘la asari "Dunyoning ishlari" hisoblanadi. Chunki, bu asar hayotiy tarzda keng yoritilgan.

XULOSA:

O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llanilgan dialektlar mavzusidagi maqolamning xulosasi shundan iboratki, maqolamda asarlarda uchraydigan turfa xil dialektlarning ko‘rinishi, shakllari ularning ma’nolari xususida so‘z yuritganman. Maqolada ko‘rsatilgan asarlardagi dialektlarning mazmuni ochib berilganligi bu asarlarning mavzu ko‘lamini ochilishiga ham yordam bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari"
2. O‘tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi".
3. O‘tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar".
4. www.library.ziyonet.uz
5. www.lingvo.-online.ru